



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOG'LIQNI SAQLASH MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHDA TIBBIYOT TASHKILOTLARINING MODDIY RAG'BATLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH JAMG'ARMASI MABLAG'LARINING O'RNI

Sultonali Mexmonov

*Iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti,
o'quv ishlari bo'yicha prorektor, Toshkent, O'zbekiston.*

Email: mexmonov@tfi.uz

ORCID: 0000-0001-2345-6789

Feruz Hasanov*

*Toshkent moliya instituti magistranti
Toshkent, O'zbekiston. Email: fedik930@gmail.com*

ORCID: 0000-0002-5835-8043

FUNDAMENTAL DEVELOPMENT FUND FOR MEDICAL ORGANIZATIONS IN THE FINANCING OF HEALTH INSTITUTIONS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Sultonali Mehmonov

*Doctor of economic sciences, professor, Vice Rector for academic affairs
at Tashkent institute of Finance, Tashkent, Uzbekistan.*

Email: mexmonov@tfi.uz

ORCID: 0000-0001-2345-6789

Feruz Hasanov*

*The student of Tashkent institute of Finance
Tashkent, Uzbekistan. Email: fedik930@gmail.com*

ORCID: 0000-0002-5835-8043

JEL classification: H6, H61

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlananirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish, hisobga olish va ularning nazorati yoritib berilgan.

Budjet tashkilotlari budjet mablag'larining asosiy iste'molchisi hisoblanib, Davlat budjeti xarajatlarini tashkil etadi va xarajatlar smetasi asosida budjetdan moliyalashtiriladi. Shuningdek, budjet tashkiloti qonunchilikka muvofiq budjetdan tashqari mablag'lar yuzasidan tashkil bo'lish manbalari va foydalanish yo'nalishlari ko'rsatilgan holda budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha smetalar doirasida xarajatlarni

amalga oshiradi. Oxirgi yillarda davlat moliyasini isloq qilish loyihasini amalga oshirish doirasida so'nggi natijaga yo'naltirilgan budgetlashtirish tamoyillarining joriy qilinishi, o'rta muddatli budjet istiqbollarini belgilash siyosatining ilgari surilishi, davlat budgetining g'azna ijrosiga o'tilishi hamda budjet siyosatidagi boshqa o'zgarishlarning amalga oshirilishi budjet tashkilotlarida o'z xarajatlarini aniqlash va smetalarni ishlab chiqish, budjetdan tashqari mablag'larini safarbar qilish tartiblarini takomillashtirishni talab etmoqda.

Davlat budjeti ijrosining G'aznachilik tizimi joriy qilinib, budjet daromadlari va xarajatlarining ijrosi kassa



usulida amalga oshirilishi mablag'larni samarali va maqsadli sarflash hamda nazorat qilish imkoniyatini bermoqda. Budget tashkilotlari xarajatlarining to'lovi g'aznachiliklari amalga oshirilib, budget mablag'larini ortiqcha band qilmaslikni ta'minlamoqda. Islohotlarni amalga oshirish davomida budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'lari ham g'aznachilikka qamrab olinib uning kassa ijrosi ham g'aznachilik tomonidan amalga oshirilmoqda. Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari mablag'larining tashkilot shaxsiy hisobraqamiga kelib tushishi va sarflanishi kassa usulida g'aznachilikda hisobga olinadi. Budget tashkilotlarida esa budgetdan tashqari mablag'larning tashkilot shaxsiy hisobraqamiga kelib tushishi va sarflanishi kassa va hisob usulida aks ettiriladi.

Tibbiyat muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi mablag'larining taqsimlanishini Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyat markazining Toshkent viloyati filiali misolida tahlil qilingan. Jamag'arma mablag'larini taqsimlash, ularni hisobga olish bo'yicha muammolar hamda ularning yechimi keltirib o'tilgan.

Abstract. This article describes the formation, accounting and control of funds of the Fund for Material Incentives and Development of Medical Institutions.

Budget organizations are the main consumers of budget funds, they make up the state budget expenditures and are financed from the budget on the basis of cost estimates. In addition, in accordance with the law, the budget organization carries out expenditures within the budget estimates for extra-budgetary funds, indicating the sources of organization and use of extra-

budgetary funds. In recent years, the implementation of the results-oriented budgeting principles in the framework of the public finance reform project, the promotion of the medium-term budget forecasting policy, the transition to the treasury execution of the state budget and other changes in budget policy. The increase in budget organizations requires the improvement of procedures for determining their costs and developing estimates, the mobilization of extra-budgetary funds.

The introduction of the Treasury system in the execution of the state budget, the implementation of budget revenues and expenditures on a cash basis allows for efficient and targeted spending and control of funds. Expenditures of budget organizations are paid through the treasury, which ensures that the budget is not overburdened. During the implementation of the reforms, extra-budgetary funds of budget organizations are included in the treasury, and its cash execution is carried out by the treasury. Receipts and disbursements of extra-budgetary funds of budget organizations to the personal account of the organization are recorded in the cashier's office. In budget organizations, the receipt and expenditure of extra-budgetary funds in the personal account of the organization is reflected in the cash and accounting methods.

The distribution of funds of the Fund for Material Incentives and Development of Medical Institutions is analyzed on the example of the Tashkent regional branch of the Republican Specialized Scientific-Practical Medical Center of Oncology and Radiology. There are problems with the distribution of funds, their accounting and solutions.

Kalit so'zlar: budget tashkiloti, tibbiyat muassasasi, budgetdan tashqari jamg'arma, daromad, xarajat, ijara dan tushgan

mablag'lar, pullik xizmat, iqtisod qilingan mablag'lar, homiylik mablag'lari.

Keywords: budget organization, extra-budgetary funds, income, expense, lease

Kirish. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida budjet mablag'lari bilan bir qatorda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari ham davlat budgetining ajralmas qismiga aylanishga ulgurdi. Budgetdan tashqari jamg'armalar hozirgi kunga kelib deyarli barcha birinchi darajali budjet taqsimlovchilar huzurida tashkil qilingan bo'lib, muassasalar xodimlarini qo'shimcha rag'batlantirish va moddiy texnik bazasini rivojlantirish uchun xizmat qilmoqda.

Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi ham tibbiyot muassasalarining moliyalashtirish manbalaridan biri hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabrda 276-sonli «Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida»gi qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Tibbiyot muassasasining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasini shakllantirish manbalari quyidagilar:

tibbiyot tashkilotiga ajratiladigan budjet mablag'lari umumiylajmining 5 foizigacha bo'lgan miqdorda budjetdan ajratiladigan mablag'lar;

faoliyat ixtisosligi bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar;

hisobot choragini so'nggi ish kuni oxirida xarajatlar smetasi bo'yicha tejalgan mablag'lar (kapital qo'yilmalarni

payments, sponsorship, business-type production, savings, other non-budgetary funds.

moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan mablag'lar bundan mustasno);

belgilangan tartibda budjet tashkilotlari tasarrufida qoldiriladigan mablag'lar va homiylikdan olingan mablag'lar (1-rasm).

Material va metod. Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetasining daromad qismi moliya yili boshidagi mablag'lar qoldig'i hamda daromadlarning manbalar kesimidagi prognozidan tashkil topadi.

Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi daromadlariga quyidagilar kiradi:

tibbiyot muassasasi uchun ajratiladigan budjet mablag'larining 5 foizi hisobidan tushgan summa;

homiylar tashkilotlar mablag'lari;

pulli davolash va xizmatlar ko'rsatishdan;

hisobot choragini oxirgi ish kunida tejab qolningan budjet mablag'lar;


vaqtincha foydalanimayotgan binolarni va davlatning boshqa mulkclarini ijara berishdan.

Tibbiyot muassasasining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasining mablag'larini sarflash yo'nalishlari:

moddiy rag'batlantirish;
moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, muassasani modernizatsiya qilish va ta'mirlash, shuningdek vaqtincha

mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalarini va kreditorlik qarzlarni to'lash.
Tibbiyot muassasasining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasining

sarflashlashda tibbiyot muassasalarining guruhlari qaraladi. Buni quyidagi jadval asosida ko'rish mumkin:



1-rasm. Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasining shakllantirish manbalari¹

¹ Tibbiyot tashkilotlarining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasining shakllantirish manbalari tahlil qilingan ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi



1-jadval

Tibbiyot muassasasining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasini shakllantirish va uning mablag‘larini sarflash yo‘nalishlari

<i>Tibbiyot muassasalari guruhlari</i>	Moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasining mablag‘larini sarflash yo‘nalishlari	
	moddiy rag‘batlantirishga	moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, muassasani modernizatsiya qilish va ta’mirlash, shuningdek vaqtincha mehnatga qibiliyatsizlik nafaqalarini va kreditorlik qarzlarni to‘lashga
<i>muassasalarning I guruhi</i>	25%	75%
<i>muassasalarning II guruhi</i>	35%	65%
<i>muassasalarning III guruhi</i>	40%	60%
<i>muassasalarning IV guruhi</i>	50%	50%

Shu o‘rinda tibbiyot muassasalarida tejalgan mablag‘lar mavjud bo‘lganda ushbu mablag‘lar xodimlarning vaqtincha mehnatga layoqatsizligi bo‘yicha to‘lanmagan nafaqalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishi mumkin.[7]

Natijalar. Ilmiy maqola mavzusi doirasida Respublika ixtisoslashtirilgan

onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Toshkent viloyati filialining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi bo‘yicha pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi 2019-2021 yillardagi hisobotlari ma’lumotlari tahliliga o‘tamiz.

3-jadval

Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Toshkent viloyati filialining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasining ish haqi bo‘yicha kassa xarajatlari o‘zgarishi

(ming so‘mda)

Xarajatlар nomi	Toifa	Modda va kichik modda	Element	2019 yil		2021 yil		O‘zgarish	
				Kassa xarajatlari	O‘zga-rish % da	Kassa xarajatlari	O‘zga-rish % da	Kassa xarajatlari	O‘zga-rish % da
Tibbiyot tashkilotlari xodimlariga ustama va qo‘srimchalar	41	11	220	286 042,3	80,6	408 493,6	81,8	122 451,3	1,15
Yagona ijtimoiy to‘lov	41	21	100	68 788,2	19,4	91 132,2	18,2	22 344	-1,15
JAMI	X	X	X	354 830,5	100	499 625,8	100	144 795,3	

3-jadval ma'lumotlariga qarasak, Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Toshkent viloyati filialida 2019 yilda tashkilot xodimlariga ustama va qo'shimchalar uchun 286 042,30 ming so'm miqdorida va yagona ijtimoiy to'lov uchun 68 788,20 ming so'm miqdorida kassa xarajatlari amalga oshirilgan. Bu mos ravishda umumiyligi summaning 80,61 va 19,39 foizini tashkil etishini ko'rishimiz mumkin. 2021 yilda esa tashkilot xodimlariga ustama va qo'shimchalar uchun

408 493,60 ming so'm miqdorida va yagona ijtimoiy to'lov uchun 91 132,20 ming so'm miqdorida kassa xarajatlari amalga oshirilgan. Bu mos ravishda umumiyligi summaning 81,76 va 18,24 foizini tashkil etadi.

2021 yilda 2019 yilga nisbatan tashkilot xodimlariga ustama va qo'shimchalar uchun 122 451,30 ming so'm miqdorida va yagona ijtimoiy to'lov uchun 22 344,00 ming so'mga ko'proq miqdorda kassa xarajatlari amalga oshirilgan. [8]

4-jadval

Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Toshkent viloyati filialining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasining ish haqi bo'yicha kassa xarajatlari o'zgarishi

(ming so'mda)

Xarajatlar nomi	Toifa	Modda va kichik modda	Element	2020 yil		2021 yil		O'zgarish	
				Kassa xarajatlari	O'zga-rish % da	Kassa xarajatlari	O'zga-rish % da	Kassa xarajatlari	O'zga-rish % da
Tibbiyot tashkilotlari xodimlariga ustama va qo'shimchalar	41	11	220	373 956,	80,5	408 493,6	81,8	34 536,8	1,2
Yagona ijtimoiy to'lov	41	21	100	90 439,1	19,5	91 132,2	18,2	693,1	-1,23
JAMI	X	X	X	464 395,9	100	499 625,8	100	35 229,9	

4-jadval ma'lumotlariga asosan, Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Toshkent viloyati filialida 2020 yilda tashkilot xodimlariga ustama va qo'shimchalar uchun 373 956,80 ming so'm miqdorida va yagona ijtimoiy to'lov uchun 90 439,10 ming so'm miqdorida kassa xarajatlari amalga oshirilgan. Bu mos

ravishda umumiyligi summaning 80,53 va 19,47 foizini tashkil etishini ko'rishimiz mumkin.

2021 yilda 2020 yilga nisbatan tashkilot xodimlariga ustama va qo'shimchalar uchun 34 536,80 ming so'm miqdorida va yagona ijtimoiy to'lov uchun 693,10 ming so'mga ko'proq miqdorda kassa xarajatlari amalga oshirilgan. [8]

Munozara. 5-jadval ma'lumotlariga qarasak, Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Toshkent viloyati filialida 2019 yilda tashkilot xodimlariga ustama va qo'shimchalar uchun 287 373,10 ming so'm miqdorida va yagona ijtimoiy to'lov uchun 67 028,50 ming so'm miqdorida haqiqiy xarajat amalga oshirilgan. Bu mos ravishda umumiyligi summaning 81,09 va 18,91 foizini tashkil etishini ko'rishimiz mumkin. 2021 yilda esa tashkilot xodimlariga ustama va qo'shimchalar uchun 395 041,80 ming so'm

miqdorida va yagona ijtimoiy to'lov uchun 14 985,30 ming so'm miqdorida haqiqiy xarajat amalga oshirilgan. Bu mos ravishda umumiyligi summaning 96,35 va 3,65 foizini tashkil etadi.

2021 yilda 2019 yilga nisbatan tashkilot xodimlariga ustama va qo'shimchalar uchun haqiqiy xarajat 107 668,70 ming so'mga ko'payganligini, yagona ijtimoiy to'lov uchun esa aksincha, 52 043,20 ming so'mga kam miqdorda haqiqiy xarajat amalga oshirilgan. [8]

5-jadval

Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Toshkent viloyati filialining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasining ish haqi bo'yicha haqiqiy xarajatlar o'zgarishi²

(ming so'mda)

Xarajatlar nomi	Toifa	Modda va kichik modda	Element	2019 yil		2021 yil		O'zgarish % da
				Xarajat (261-subschyot bo'yicha)	O'zgarish % da	Xarajat (261-subschyot bo'yicha)	O'zgarish % da	
Tibbiyot tashkilotlari xodimlariga ustama va qo'shimchalar	41	11	2	287 373,1	81,1	395 041,8	96,4	107 668,7
Yagona ijtimoiy to'lov	41	21	1 0 0	67 028,5	18,9	14 985,3	3,6	-52 043,2
JAMI	X	X	X	354 401,6	100	410 027,1	100	55 625,5

² Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Toshkent viloyati filialining moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risidagi 2018-2020 yillar hisobotlari ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.



6-jadval

Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Toshkent viloyati filialining moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasining ish haqi bo‘yicha haqiqiy xarajatlar o‘zgarishi

(ming so‘mda)

Xarajatlar nomi	Toifa	Modda va kichik modda	Element	2020 yil		2021 yil		O‘zgarish	
				Xarajat (261-subschyot bo‘yicha)	O‘zgarish % da	Xarajat (261-subschyot bo‘yicha)	O‘zgarish % da	Xarajat (261-subschyot bo‘yicha)	O‘zgarish % da
Tibbiyot tashkilotlari xodimlariga ustama va qo‘srimchalar	41	11	220	372 551,1	98,7	395 041,8	96,4	22 490,7	-2,4
Yagona ijtimoiy to‘lov	41	21	100	4 837,7	1,3	14 985,3	3,6	10 147,6	2,4
JAMI	X	X	X	377 388,8	100	410 027,1	100	32 638,3	

amaliy tibbiyot markazi Toshkent viloyati filialida 2020 yilda tashkilot xodimlariga ustama va qo‘srimchalar uchun 372 551,10 ming so‘m miqdorida va yagona ijtimoiy to‘lov uchun 4 837,70 ming so‘m miqdorida haqiqiy xarajat amalga oshirilgan. Bu mos ravishda umumiy summaning 98,72 va 1,28 foizini tashkil etishini ko‘rishimiz mumkin.

2021 yilda 2019 yilga nisbatan tashkilot xodimlariga ustama va qo‘srimchalar uchun 22 490,70 ming so‘m miqdorida va yagona ijtimoiy to‘lov uchun 10 147,60 ming so‘mga ko‘proq miqdorda haqiqiy xarajat amalga oshirilgan. [8] Buni so‘nggi yilda yuzaga kelgan pandemiya vaziyati va tibbiyot sohasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlohotlar doirasidagi ijobjiy o‘zgarishlar samarasid deb baholashimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Ilmiy maqolamizning mavzusini yoritish jarayonida yuqoridagi rejalar asosida biz tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi

mablag‘larini smeta asosida rejalashtirish va moliyalashtirish tartiblarini o‘rgandik hamda bu borada bugungi kunda olib borilayotgan islohotlarning mazmun mohiyatini ohib berishga harakat qildik. Tibbiyot muassasalarini moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari (budgetdan tashqari manbalar) hisobidan mustahkamlash yo’llarini tadqiq qilib, budget amaliyotida budgetdan tashqari markazlashgan va markazlashmagan manbalardan foydalanish imkoniyatlari va ularning shakllanish va sarflanishi hisobining tartibini o‘rganib chiqib, quyidagi xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo‘ldik:

- bizning fikrimizcha, mamlakatdagi bozor munosabatlarining rivojlanishi va shakllanishi darajasidan qat‘iy nazar, davlat, ijtimoiy sohalarni boshqarish, ularning faoliyatini tashkil etish va moliyalashtirishda ishtirok etishi zarur hamda ularning normal darajada faoliyat yuritishi uchun davlat barcha huquqiy,

tashkiliy va iqtisodiy shart-sharoitlarni yaratib berishi shart;

- tibbiyot muassasalarining budjetdan tashqari mablag'larni jalb qilishga bo'lgan harakati ularning asosiy faoliyatiga, tashkilotning missiyasini bajarishga putur yetkazmasligi kerak, shuni unutmaslik lozimki, tibbiyot muassasalari notijorat asosida faoliyat yurituvchi muassasa, shuning uchun unda marketing masalalari o'ylab, jamiyatning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda hal etilishi kerak;
- hozirgi kunda tibbiyot muassasalarining butun budjetdan tashqari daromadlari barcha soliqlar va majburiy to'lovlardan ozod etilganligini e'tirof etgan holda, tibbiyot muassasalarining tijorat faoliyatlarini davlat bundan keyin ham rag'batlantirib borishi maqsadga muvofiq;
- tibbiyot muassasalarida shunday muhitni yaratish kerakki, tashkilot tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar natijasidan unda ishlayotgan ko'p sonli xodimlarning shaxsiy manfaatlari emas,

tashkilot manfaatlari ustuvor bo'lishi lozim, deb hisoblaymiz.

Shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi muassasalarda:

- aralash moliyalashtirish tizimiga erishish;
- ixtiyoriy tibbiy sug'urtani keng joriy qilish;
- mavjud maxsus sug' urta tashkilotlari orqali shartnomalar asosida sog'liqni saqlash muassasasini qo'shma moliyalashtirishda ishtirokini rag'batlantirish va yo'lga qo'yish;
- mamlakat miqyosida sog'liqni saqlash tizimi xarajatlarini moliyalashtirish va uni rejalashtirishda majburiy ijtimoiy tibbiy sug'urta tizimini joriy qilish lozim deb hisoblaymiz.



Foydalanimilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi. 23.12.2013y. O’RQ-360-son//www.lex.uz
2. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 414-sonli “Byudjet tashkilotlarini mablag’ bilan ta’minalash tartibini takomillashtirish to’g’risida”gi Qarori 3.09.1999//www.lex.uz
3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabrdagi 276-sonli «Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to’lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to’g’risida»gi qarori//www.lex.uz
4. S.U.Mehmonov Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya va amaliyot. Toshkent. Iqtisod-moliya 2016
5. S.U.Mehmonov Budget hisobi. O’quv qo’llanma. Toshkent 2012
6. Abdukarimovich O. A. Budget organizations formation and improving accounting for out-of-budget budgets //International Journal of Advanced Science and Technology. – 2020. – T. 29. – №. 8. – C. 11-16.
- 7.O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabrdagi “Tibbiyot xodimlari mehnatiga haq to’lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to’g’risida”gi 276-son qaroriga 3-ilova
8. Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Toshkent viloyati filialining moliyaviy hisobotlari.
9. www.lex.uz
10. www.mf.uz